



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI
RIVOJLANTIRISH QO'MITASI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI NUKUS
FILIALI**

**"VETERINARIYA MEDITSINASI VA CHORVACHILIKDAGI DOLZARB
MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI" mavzusidagi xalqaro
ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari**

TO'PLAMI

13-noyabr 2025-yil

СБОРНИК материалов

**международной научно и научно-технической конференции на тему
"АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ И
ЖИВОТНОВОДСТВА И ИХ РЕШЕНИЯ"**

13 ноября, 2025 г

**International scientific and scientific-technical conference
"ACTUAL PROBLEMS OF VETERINARY MEDICINE AND LIVESTOCK
AND THEIR SOLUTIONS"**

November 13, 2025

NUKUS-2025

“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”
Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari [Matn]: to‘plam / Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali. – Nukus: “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025. – 389 b.

Anjuman tashkiliy qo‘mitasi

Tashkiliy qo‘mita raisi: Esimbetov Adilbay Tlepovich, b.f.d., professor;

Tashkiliy qo‘mita raisi muovini: Avezimbetov Shavkat Dosumbetovich, v.f.n.;

Tashkiliy qo‘mita kotibi: Rozumbetov Kenjabek Umar og‘li, b.f.f.d.;

D. Bazarbayeva – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida katta o‘qituvchisi, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Tashkiliy qo‘mita a‘zolari:

Sh. Jabbarov – O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari, veterinariya fanlari doktori, professor.

X. Yunusov – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti rektori, biologiya fanlari doktori, professor.

M. Y. Karpuxin – Ural davlat agrar universitetining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, agrar fanlar doktori, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

N. G. Malkov – N. F. Vereshagin nomidagi Vologda davlat sutchilik akademiyasi rektori, texnika fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

A. Abdurasulov – Qirg‘iziston Respublikasi O‘sh davlat universiteti “Veterinariya meditsinasi va biotexnologiyasi” kafedrasida mudiri, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, professor. (Qirg‘iziston Respublikasi)

R. Miqtibayeva – Qozog‘iston milliy agrar tadqiqot universiteti “Mikrobiologiya va virusologiya” kafedrasida professori, veterinariya fanlari nomzodi. (Qozog‘iston Respublikasi)

S. Mirzakulov – Olmaota texnologiya universiteti “Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi” kafedrasida professori, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, dotsent. (Qozog‘iston Respublikasi)

Q. Atanazarov – O‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari, biologiya fanlari nomzodi, dotsent.

A. Mambetnazarov – Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, dotsent.

A. Kaniyazov – “Veterinariya va zootexnologiya” fakulteti dekani, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

X. Mamatov – “Zootexnologiya” kafedrasida mudiri, qishloq xo‘jalik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

R. Turg‘anbayev – “Zootexnologiya” kafedrasida professori, agrar fanlar doktori

A. Kamalova – “Veterinariya meditsinasi va farmakologiyasi” kafedrasida mudiri, veterinariya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

P. Xojalepesov – “Iqtisodiyot va gumanitar fanlar” kafedrasida mudiri, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

R. Rzaev – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida mudiri, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 27-dekabrda 490-son buyrug‘i bilan oliy ta‘lim tashkilotlari hamda ilmiy tashkilotlarda 2025-yilda o‘tkaziladigan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpoziumlar, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxati 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan – 2025-yilda xalqaro miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi asosida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filialida 2025-yil 13-noyabr kuni – **“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”** mavzusida o‘tkazilgan Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari asosida tuzilgan.

Konferensiyada, veterinariya sohasida faoliyat olib borayotgan universitet va filialarning professor-o‘qituvchilari, ilmiy markazlarning va insitutlarning ilmiy xodimlari, doktorantlar, magistrantlar, iqtidorli yosh tadqiqotchilarning ilmiy-tadqiqot ishlariga bag‘ishlangan maqolalar o‘rin olgan

To‘plamga kiritilgan maqolalar materiallarining to‘g‘riligi va haqqoniyligiga mualliflar mas‘ul hisoblanadi.

© Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali, 2025

© “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025

- RESULTS OF A 15-YEAR STUDY AND PATHOLOGOANATOMICAL CHARACTERISTICS. JOURNAL OF VETERINARY SCIENCE, 8(3), 1-6.
13. Shavkat, A., Barlikbayevich, E. A. Q., & Allaniyazovna, P. D. In the Conditions of Karakalpakstan. Sheep Fasciolosis and Fasciola Gigantica Were First Found in the Lungs.–2023.
 14. Shavkat, A., Kural, A., & Gayratdin, O. (2025). ORGANIZATIONAL SYSTEM OF PERSONNEL POLICY AIMED AT IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. Advanced methods of ensuring the quality of education: problems and solutions, 2(4), 98-102.
 15. Shavkat, A. va Kural, A. (2025). OLIY TA'LIM MASSASALARIDA TA'LIM SIFATI VA TA'LIM QIMMATINI ORTALASH UCHUN TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNI TASHKILLASH. Ta'lim sifatini ta'minlashning ilg'or usullari: muammolar va echimlar , 2 (4), 85-88.
 16. Dosumbetovich, AS, & Qutlymuratovich, SA, SA Qoraqalpog'istonda qoramollarda yashirin surunkali endometritni davolashning samarali usullari. Academia Globe , 2 (05), 240-244.
 17. Аvezимбетов, Ш. Д. (2020). МЕТОДЫ ЛЕЧЕНИЯ И ЛАБОРАТОРНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ СЕКРЕТНОГО ХРОНИЧЕСКОГО ЭНДОМЕТРИТА. Экономика и социум, (12 (79)), 338-341.
 18. Sh, A. va Taylakov, TI (2020). Paramfistomatoz sistematikasi, diagnostika usullari, epizootologiyasi, patogenezi, kasallikning kelib chiqishi va yangi davolash usullari. Amerika veterinariya fanlari va yovvoyi tabiatni kashf qilish jurnali , 2 (06), 1-6.
 19. Avezimbetov, S. D., Togaymuradov, M. S., & Bazarbaeva, A. A. (2021). Induction of superovulation in cattle. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 1778-1781.
 20. Dosumbetovich, A. S., & Komoladdinovich, K. S. (2021). New effective methods of treatment of persistent infertility in cows.
 21. Shavkat, A., Kural, A., & Maryam, Y. (2025). THE IMPLEMENTATION MECHANISM OF DIGITAL TRANSFORMATION TO ENHANCE EDUCATIONAL EFFICIENCY IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. Advanced methods of ensuring the quality of education: problems and solutions, 2(4), 93-97.

QO'YLARNING ESTROZ KASALLIGI

(Adabiyot ma'lumotlari tahlili)

Ismoilov A.Sh., Isakov A.K.

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Nukus filiali*

Kirish. Qo'y estrozi - bu Oestrus ovis L. turiga mansub hasharot lichinkalarining qo'ylarning burun bo'shlig'i va peshona bo'shliqlarida parazitlik qilishi bilan kechadigan surunkali kasallikdir. Kasallik dunyoning issiq va yarim quruq iqlimli mintaqalarida, xususan Kavkaz, Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq, O'rta Yer dengizi mamlakatlari va Janubiy Rossiyada keng tarqalgan.

Estroz chorvachilikka katta iqtisodiy zarar yetkazadi - qo'ylarning o'sish sur'ati sekinlashadi, jun sifati pasayadi, reproduktiv ko'rsatkichlar yomonlashadi hamda o'lim hollari qayd etiladi.

Bu kasallik bahor va kuz mavsumlarida qo'ychilik xo'jaliklariga katta iqtisodiy zarar yetkazadi ya'ni bo'ka lichinkalari burun bo'shlig'ini yallig'lantirib infeksiya tarqalishiga qulay imkoniyat yaratadi. Chorva mollarining mahsuldorligini pasaytirib, ba'zida ularning o'limiga olib

keladi. Bundan tashqari, bo'ka lichinkalari odamlarning ayniqsa cho'ponlar va fermerlarning ko'zlariga ta'sir qilib, oftalmomiozni keltirib chiqaradi.

Shuning uchun bo'kalarga qarshi profilaktik tadbirlar rejasini ishlab chiqish va uni amalga oshirish chora tadbirlari aholi va chorvachilikni sanitariya osoyishtaligini ta'minlash imkonini beradi.

Tadqiqot maqsadi. Qo'ylarning estroz kasalligini tarqalishi, biologiyasi, klinik belgilari, tashxisi va unga qarshi kurashish choralari bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlar tahlil qilishdan iborat.

Klinik belgilari. Qo'ylarning estroz kasalligi *Oestrus ovis* bo'kalari tomonidan parvoz vaqtida qo'ylarning burun bo'shlig'iga 6-12 tagacha lichinkalarini purkab ketishi oqibatida kuzatiladi. Ushbu hasharot lichinkalari 3 bosqichda rivojlanadi. Bo'kaning I bosqich lichinkalari burun bo'shlig'i va panjarasimon suyak shilliq qavatida, II va III bosqich lichinkalari esa peshona va shox o'simtasi bo'shlig'ida rivojlanadi va 4-6 oyigacha yashaydi. Natijada shilliq qavat shikastlanib, yallig'lanish va nekroz paydo bo'ladi. I va II bosqich lichinkalarining rivojlanishi davrida ko'rinarli belgilar sezilmaydi. III bosqich lichinkalarining rivojlanishi davrida burun va peshona bo'shliqlarida turli darajadagi yallig'lanishlar rivojlanadi, burundan qon aralash serozli-yiringli suyuqlik oqadi, nafas olishi qiyinlashadi, ayrim hollarda hayvonlarda harakat muvozanati buzilib, bir tomonga aylanish (aylanchiq) holati kuzatiladi.

Estrozning erta bosqichida qo'ylar aksa urishadi, burunlarini yerga ishqalashadi, nafas olish qiyinlashadi. Kuchli invaziyada hayvonlar boshlarini chayqashadi, muvozanatni yo'qotishadi, ishtaha pasayadi. Burun va peshona bo'shlig'ida yiringli yallig'lanish, shilliq qavatlarning shishishi, nafas yo'llarining torayishi kuzatiladi.

Estrozning og'ir shakllarida nerv tizimi zararlanishi oqibatida hayvonlar o'lishi mumkin. Shu sababli kasallik nafaqat veterinariya, balki iqtisodiy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega.

Parazitning biologiyasi. *Oestrus ovis* urg'ochilari tirik lichinkalarni to'g'ridan-to'g'ri qo'ylarning burun teshiklariga tashlaydi. Lichinkalar 3 rivojlanish bosqichini o'tadi: I-bosqich – burun bo'shlig'ida; II–III-bosqich – peshona va gaymor sinuslarida.

Rivojlanish muddati tashqi muhit haroratiga qarab 25–60 kunni tashkil etadi. Voyaga yetgan hasharotlar (imago) tuproqda g'umbak bosqichidan chiqadi va uchish davrida faol bo'ladi.

Tadqiqotchilarning fikricha, *Oestrus ovis* uchish davri va populyatsiyasi iqlim sharoiti, relef va chorvani boqish tizimiga bog'liq (1). 1970-yillarda Stavropol o'lkasi va Shimoliy Kavkaz hududlarida o'tkazilgan tadqiqotlarda bo'kaning uchish davri 5–5,5 oy davom etgani, maksimal faollik iyul hamda sentyabr–oktyabr oylariga to'g'ri kelgani aniqlangan. So'nggi yillarda bahorning erta isishi va kuzning kech boshlanishi tufayli bo'kaning uchish davri uzaymoqda, bu esa estroz bilan zararlanish darajasini oshirmoqda.

Qo'ylar zararlangan paytda aksa uradi va yo'taladi. Natijada qo'ylar to'da- to'da bo'lishib, tumshuqlarini o'tga yoki tuproqqa qadab turishadi. Kasallik, ayniqsa qo'zilar orasida og'ir kechib, ularda kamharakatlilik, holsizlanish, tez oriqlash, og'zini ochib nafas yetishmasligi, pulsning ortishi, tana haroratining 40-41 gradusgacha ko'tarilishi va hatto ayrim qo'zilarining o'lishi ham kuzatiladi.

Qo'zilarida dastlabki klinik belgi sifatida rinit kuzatilib, ularning burun bo'shlig'iga bo'kalar o'z lichinkalarini qo'ygach, 3-4 soatdan keyin boshlanadi. Zararlangan hayvonlar ko'p pishqiradi, aksa uradi, «maqsadsiz» yuguradi, ko'zlarning yuqorigi va pastki qovoqlari shishadi, ko'z va burun bo'shlig'i shilliq qavatlarining giperemiyasi kuzatiladi. Invazyalanishdan keyin 1-3 kun o'tgach, burun bo'shlig'idan ko'p miqdorda shilliq suvsimon suyuqlik ajraladi, burundan nafas olish qiyinlashadi. 5 kunga borib qo'zilarida suyuqlik ajralishi yanada kuchayadi.

Kasallikning 14-30 kunlarida qo'zilarining burun bo'shlig'idan yopishqoq yiringli shilliq ajraladi, ayrimlarida esa bu jarayon yashirin kechadi.

Kasallikning ikkinchi, ya'ni yashirin davrida lichinkalar rivojlana borib ikki marta tullaydi va ikkinchi hamda uchinchi bosqich davri boshlanib, peshona bo'shlig'idan lichinkalar kuchli rivojlanishda davom etadi va ularning kattaligi 20-30 mm hamda intensivligi 30-40 nusxa atrofida

ortsa va ayniqsa bo'g'oz sovliqlar va qo'zilar kasallik nerv faoliyatining buzilishi bilan karakterlanadi. Bunday holatlarda hayvon tezda oriqlab, kuchsizlanib qoladi, atrof-muhitga munosabat refleksi yo'qoladi, aylanma harakat (soxta senuroz) qilib charchagach yiqiladi va 3-5 kundan keyin o'ladi.

Diagnoz qo'yish va uni farqlash. Kasallikka tashxis asosan klinik belgilar, anamnez va laborator tekshiruvlarga asoslanadi. So'yilgandan keyingi tekshiruvda peshona bo'shliqlarida lichinkalarning mavjudligi aniqlanadi. So'nggi yillarda immunoferment tahlil yordamida lichinkalarga qarshi antitanachalarni aniqlash usullari ishlab chiqilgan.

Shuningdek, kasallikni boshlang'ich bosqichida aniqlash maqsadida burun bo'shlig'iga purkagich yordamida dorili eritmalar purkalganda mavjud lichinkalar o'ladi va tashqi muhitga ajralib chikadi.

Estroz kasalligini senurozdan farqlash zarurdir. Chunki estroz va senuroz kasalliklarining klinik belgilari ko'p hollarda o'zaro o'xshash bo'ladi. Har ikki holatda ham hayvon oriqlaydi, davdirab yuradi va aylanchiq harakatlar qiladi.

Estrozda farqli belgilar quyidagicha: kasal qo'ylar qo'tonning qorong'u burchaklarida boshini devorga tirab turadi, burun bo'shlig'idan suyuqlik oqadi (senurozda yo'q), barcha yoshdagi qo'y qo'zilar kasallanadi (senurozda ko'proq yosh mollar), kasallanganlar goh chap tomonga, goh o'ng tomonga aylanchiq harakat qiladi. Senuroz kasalligida esa faqat bir tomonga (o'ng yoki chapga) aylanadi.

Yakuniy hal qiluvchi diagnoz esa kasallanib o'lgan yoki so'yilgan hayvon jasadi yorib ko'rilib, burun bo'shlig'ida bo'kalarning lichinkasi topilsa – estroz, bosh miyada senuroz pufaklari aniqlansa – senuroz ekanligi aniqlanadi.

Profilaktika va davolash. Estrozga qarshi kurashda kompleks yondashuv qo'llaniladi: Veterinar-sanitar tadbirlar: bo'kaning uchish davrida qo'ylarni yopiq joylarda saqlash, qo'ralarni mexanik tozalash, lichinkalarning rivojlanishini oldini olish.

Dori vositalari: ivermektin, doramektin, closantel, moxidektin kabi antiparazitar preparatlar yuqori samaradorlik ko'rsatadi.

Bundan tashqari yaylovlarni almashtirish va ekologik nazorat choralari ham lichinkalarning tuproqda rivojlanishini kamaytirishga yordam beradi.

Xulosa. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, qo'y estrozi masalasi hali ham dolzarbdir. So'nggi 20-30 yil ichida iqlim o'zgarishlari, chorvachilik texnologiyalarining o'zgarishi va global isish fonida kasallikning ekologik xususiyatlari o'zgarib bormoqda. Shu bois *Oestrus ovis*ning biologiyasi, uchish dinamikasi va invaziya darajasini zamonaviy monitoring asosida qayta o'rganish, yangi profilaktika tizimlarini ishlab chiqish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Тернов В. И., Михайленко В. К. (1972). Биология полостного овода овец в условиях Северного Кавказа. Труды ВИЭВ.
2. Soulsby, E. J. L. (1982). Helminths, Arthropods and Protozoa of Domesticated Animals. London: Bailliere Tindall.
3. Сергеев, А. И. (1988). Эстроз овец и меры борьбы с ним. Москва: Колос.
4. Alcaide, M., Reina, D., Frontera, E. et al. (2005). Immunity in *Oestrus ovis* infection of sheep. *Veterinary Parasitology*, 129(1–2), 85–93.
5. Angulo-Valadez, C., Scholl, P. J., Cepeda-Palacios, R. (2011). Immunodiagnosis of *Oestrus ovis* in sheep. *Veterinary Parasitology*, 179, 195–204.
6. Grunin, K. J. (1976). Fauna of the USSR: Diptera, Oestridae. Leningrad: Nauka.
7. Papadopoulos, E., Sotiraki, S., Himonas, C. (2010). Seasonal prevalence of *Oestrus ovis* in sheep. *Veterinary Parasitology*, 174(3–4), 321–324.
8. Хакимов З., Уринов У., Саидова М., Нарманов О., Эрناзаров Д., Ходжаева З., ... и Очилов Ю. (2025). Биоразнообразие насекомых в Узбекистане: от обширных степей

до берегов Каспия – краеугольный камень евразийских экосистем. *Каспийский журнал экологических наук*, 23 (4), 1101-1105.

9. Ниязов Х., Эрناзаров Д., Аvezимбетов С., Реджепбаев Дж. С. и Шакилов У. (2025). Различные методы лечения искусственного гнойно-некротического процесса у кроликов. В BIO Web of Conferences (том 181, стр. 01007). ЭДП наук.
10. Ernazarov, D. A. (2024, October). The Effect of 10% Blood Herb (Chistotel)(Chelidoii Herba) Ointment and 10% Aloe Extract Ointment on the Inflammation Process. In International Congress on Biological, Physical And Chemical Studies (ITALY) (Vol. 5, pp. 69-73).

ZOOFIL PASHSHALARGA QARSHI KURASHISH TADBIRLARI

(Adabiyot ma'lumotlari tahlili)

Ismoilov A.Sh., Aminova M.B.

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Nukus filiali*

Kirish. Respublikamizda chorvachilikni rivojlantirish, chorva mollarining mahsuldorligini oshirish hamda aholini sifatli va ekologik toza chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish uchun qoramollarda uchraydigan zoofil pashshalar bilan samarali kurashishning yangi chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish va soha amaliyotiga tadbiq yetish muhim vazifalardan hisoblanadi. Veterinariya fani va mutaxassislari oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri chorva mollari orasida uchraydigan va xo'jaliklarga sezilarli iqtisodiy zarar yetkazadigan zoofil pashshalarga qarshi kurash chora-tadbirlarini ishlab chiqishni takomillashtirish hamda amaliyotga joriy etish sanaladi.

Pashshalarning chorva mollariga yetkazadigan zarari juda katta bo'lib, yaylov mavsumi davomida zoofil pashshalarning turli xil ekologik va taksonomik guruhlariga vaqti-vaqti bilan parazitlik qilib, bir-birini almashtirib, kun va mavsum davomida hayvonlarni doimo bezovta qilib turadi. Zoofil pashshalarining hayvonlarga hujum qilish natijasida ularning go'sht, sut, jun va boshqa mahsuldorligining pasayishiga olib keladi, tovuqlarda tuxum qo'yish kamayadi, bug'ularning teri xom ashyosi va shoxining sifati pasayadi.

Shuning uchun ham zoofil pashshalarning faunasini o'rganish, ko'payishini oldini olish va qarshi kurashish choralarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Mulkechilik shaklidan qat'i nazar chorvachilik xo'jaliklarida hayvonlarni yuqumli va invazion kasalliklardan asrash uchun bir qator veterinariya-sanitariya tadbirlarini o'tkazish zarurati tug'iladi. Amalga oshirilayotgan tadbirlar orasida parazit hasharotlar, xususan, zoofil pashshalarga qarshi kurash muhim o'rin tutadi. Ishlab chiqarishdagi sanitariya sharoitining yomonligi pashshalar ko'payishining asosiy manbai hisoblanadi.

Kimyoviy moddalardan foydalanish har xil turdagi ob'ektlar va hududlarda zoofil hasharotlarni nazorat qilishning nisbatan sodda va arzon usuli hisoblanadi, shuning bilan birga, dezinseksiya qilish uchun tavsiya etilgan preparatlarga talab ortib bormoqda. Insektitsidlar odamlar va qishloq xo'jaligi hayvonlari uchun past toksik tasirga ega bo'lishi va zararli hasharotlarga o'ldiruvchi tasir ko'rsatishi kerak. Yaylovlarda pashshalarga qarshi kurashning hozirgi bosqichida preparatni hayvonlarga purkash usuli eng maqbul usul hisoblanadi. Chorvachilik amaliyotiga past, o'rta va to'liq hajmda preparatlarni purkash usullari yordamida hayvonlarning junlariga sepish keng joriy etilgan. Hayvonlarni parazit zoofil hasharotlarga qarshi dezinseksiya qilish uchun hozirgi vaqtda sintetik piretroidlarga asoslangan insektitsid preparatlar eng samarali va xavfsiz hisoblanadi.

Laboratoriya va ishlab chiqarish sharoitidagi izlanishlarida pashshalarning lichinka va imago shakliga baygon preparatini 0,5 va 1 foizli, butoks preparatini 0,005 foizli konsentratsiya eritmalari eng samarali ekanligi aniqlangan. Preparat qo'llanilgandan so'ng 1,5 oy o'tgach